

Marg'ilon ijod ahliga alohida e'tiborlari uchun Marg'ilon shahar hokimi muhtaram Abdurahob Ro'zievga, ushbu kitobning nashr etilishida homiylik qilgan "Hijrat" va "Dilshod" firmalarining boshliqlari hurmatli Ne'matjon Sobirov hamda Ro'zimuhammad Teshaboevlarga samimiy minnatdorchilik izhor qilaman.

Abdulkarim Jumaboev - Marg'ilon shahrida yashab ijod qilayotgan qalam ahllaridan biri. Kasbi - pedagog. Hozir Marg'ilon shahrida joylashgan viloyat ko'zi ojizlar kechki va sirtqi maktabining direktori vazifasida ishlaydi. Uning she'rlari shahar, viloyat va respublika matbuoti orqali nazm ixlosmandlariga yaxshi tanish.

Ijodkorning bir qator g'azallari xalq e'tiborini qozongan xonandalar kuy-qo'shiqlari qanotida shinavandalar qalbiga yetib borgan. "Marg'ilon qo'yimas meni..." Abdulkarim Jumaboevning ilk to'plami. Aziz she'riyat muxlislari! Shoirning nazm daftaridan bir guldasta tuzib hukmingizga havola etar ekanmiz, ijodkorga yanada yuksak parvozlar tilab qolamiz.

Mustaqil O'zbekistonim

Mustaqil bo'lganing rost bo'lsin, yurtim,
Quyoshdek kulganing rost bo'lsin, yurtim.
Dengizdek to'lganing rost bo'lsin, yurtim,
Erking, istiqloling manguga bo'lsin.
Hazrat Navoiyning orzusi eding,
Buyuk Temur qalbin yog'dusi eding,
Bobur dardlarining ko'zgusi eding,
Erking, istiqloling manguga bo'lsin.
Ne yovlar kelmasi bag'ring yaralab,
Boyliging tashidi bearmon talab,
Endi do'st topamiz sinab, saralab,
Erking, istiqloling manguga bo'lsin.
Yodda saqlagaymiz o'g'lonlaringni,
Akmal-u, Fayzullo, Cho'lponlaringni,
Qodiriy, Fitrat-u, Usmonlaringni,
Erking, istiqloling manguga bo'lsin.
O'zbekimiz, sabr ila bardoshimiz bor,
Har taraf har yonda qardoshimiz bor,
Xalq sevar, haqsevar yurtboshimiz bor,
Erking, istiqloling manguga bo'lsin.
Ona O'zbekiston, shonim, shavkatim,
Tangri bizga bergan aziz ne'matim,
Sensan kelajagi buyuk davlatim -
Erking, istiqloling manguga bo'lsin.

Sohibqiron Amir Temur so'zi

Ayo, avlodlarim, turkim - Turonim,
Ey, mening shavkatim, sha'nim - imonim,
Sen bilan birgadir ruhi ravonim -
Bu ulug' ayyomlar muborak bo'lsin!
Sallamno aytamiz erk - istiqbolga,
Sallamno aytamiz bu istiqbolga,
Zarracha shubha yo'q baxtu iqbolga -
Bu ulug' ayyomlar muborak bo'lsin!
Turfa ag'yorimiz armonda qoldi,
Qonli kishanlar-da zormonda qoldi,
Oltinlar, gavharlar hamyonda qoldi -
Bu ulug' ayyomlar muborak bo'lsin!
Bugun ko'ksimiz tog', dilimiz ozod,
Bugun ko'nglimiz chog', tilimiz ozod,
Bugun bag'rimiz bog', yo'limiz ozod -
Bu ulug' ayyomlar muborak bo'lsin!
Ey, xalqim, beminnat ona Turondan,
Bor mehring ayama, kechsang-da jondan.
Bilgil Vatan sevmoq asl imondan,
Bu ulug' ayyomlar muborak bulsin!

Istiqlol va Biz

O'tdi istiqlolning yana bir yili,
Hal bo'ldi yurtimning qancha mushkuli,
Chorlar ozodlikning munavvar yo'li -
Do'stim, istiqlolga biz, nima berdik?
Dunyoga ko'rk yozdi ona tilimiz,
Poklandi, imonga to'ldi dilimiz.
Olamga tanildi aziz elimiz,
Do'stim, istiqlolga biz nima berdik?
Endi tadbirkorning omadi kuldi,

Dehqon o'z yerining qadrini bildi.
Har kim o'z mulkining sohibi bo'ldi,
Do'stim, istiqlolga biz nima berdik?
Ona yurt bag'rida tinchlik barqaror,
O'z tamg'a, tug'imiz, qonunimiz bor.
Vatan madhiyasi yangrar ulug'vor,
Do'stim, istiqlolga biz nima berdik?
Istiqlol dillarga muhabbat berdi,
Vatanni sev dedi, sadoqat berdi,
Baxt berdi, tunganmas saodat berdi,
Do'stim, istiqlolga biz nima berdik?
El uchun, yurt uchun yonib yuraylik,
Vatanni mehrimiz bilan o'raylik,
Goho o'zimizdan so'rab turaylik -
Qani, istiqlolga biz nima berdik?

Iqbol

Men seni sevdim-u ne gunoh uchun,
Adashdim hijronning so'ngsiz yo'lida,
Sirlil olam ichra yuribman sarmast,
Taqdirim jilovni sevgi qo'lida.
Umidvor boqaman yo'lingga har tong,
Ranj emas, orom bor intizorlikda,
Agar hayot qaytsa, sevardim seni,
Umrin o'tsa hamki, senga zorlikda.
Zor bo'lay, yo'lingda intizor bo'lay,
Mayli orzularim topsalar zavol,
Mayli sevmasang ham faqat bilib qo'y
Sendek qizni sevmog' o'zi bir iqbol.

Sog'inch

Sog'inaman va bu sog'inchdan
Ruhim mayus tortib ketadi,
Hijron esa yigit boshimga.
G'am yukini ortib ketadi.
Kimdir ko'nolim ko'tarmoq bo'lib,
Dardim bilmay aytadi davo.
Jilmayadi kiftimga qoqib,
O'kinma, der bu birkam dunyo.
Ko'zlarimga ishora etib -
Essiz yigit, deydilar pinhon.
Bilmaydilar: ko'zlar dard emas,
Sendan ayru o'rtaguchi jon.
Qayta boqmay seni ko'raman,
Qayga bormay xayoling yo'ldosh.
Faqat o'rning bosolmas, hatto
Qalbim ichra yoqsalar quyosh.

Taqdir

Miltiragan yog'du ko'rinmas,
Ko'zlarimga zim-ziyo olam.
Yashar ekan yorug' dunyoda,
Ajab, nurga zor bo'lib odam.
Atrofigimda motamsaro rang,
Go'yo quyosh o'chay degan sham.
Yashar ekan zulmatga ko'nib,
Taqdiriga tan berib odam.
Gohi yig'lab, gohi ovunib,
Yurak-bag'rin ezganda alam -
Chidar ekan aldab o'zini
Nimadandur umidvor odam.
Yaxshiyamki dilda muhabbat,
Va yonimda sen borsan sanam,
Yaxshiyamki ezgu tashvishlar,
Turfa o'ylar bilan band odam.
Bo'lmasang sen bu zulmat ichra,
Majol qolmay qo'ymoqqa qadam
O'tar edim bir sharpa yanglig',

Taqdirimga tan berib men ham.

Yomg'ir

Tongga qadar yomg'ir yig'ladi,
Yer ko'ksini to'ldirdi yoshga.
Chaqmoq bo'lib ko'kni tig'ladi,
Suv quyildi sabru bardoshga.
Ko'chalarda birov qolmadi,
Derazalar yopildi taq-taq.
Hech kim unga quloq solmadi,
Guldurosga to'lsa-da falak.
Sukut saqlar borliq, mavjudot,
Yomg'ir yig'lar bekas darbadar.
Eshik ochmas biror bir jonzot,
Barcha uxlar g'ofil, alhazar.
Yomg'ir yig'lab ketdi. Tong otib,
Nurga to'ldi, kuldi tabiat.
O'zi shunday: yig'lagan qolib,
Kulganlarni ko'ramiz faqat.

Armon

Sen uchrasang jonim, nogohon,
Yuragimda boshlanar isyon,
Seni ko'z-ko'z qiladi armon,
Peshonamga sig'magan yorim,
Yolg'on-yolg'on yig'lagan yorim.
Yoshlik ekan aylanib qoldim,
Nozlaringga boylanib qoldim,
Yo adashdim, aldanib qoldim,
Peshonamga sig'magan yorim,
Yolg'on-yolg'on yig'lagan yorim.
Yor-yor aytib olib ketdilar,
Uzoq manzillarga yetdilar.
Seni mendan judo etdilar,
Peshonamga sig'magan yorim,
Yolg'on-yolg'on yig'lagan yorim.
Yo'llaringda ko'zlarim qoldi,
Aytolmagan so'zlarim qoldi,
Armon qoldi, orzu yo'qoldi,
Peshonamga sig'magan yorim,
Yolg'on-yolg'on yig'lagan yorim.
Qismat ekan yoring bo'lmadim,
O'zgalarni havas qilmadim.
Na sen bildiig, na men bilmadim,
Peshonamga sig'magan yorim,
Yolg'on-yolg'on yig'lagan yorim.

Ayollar

Kamolotga yetar soqibjamollar,
Qomatlari shamshod, qoshi hilollar.
Ofatijon bo'lar ekan, ayollar,
O'ttizdan o'tsalar, qirqqa yetsalar.
Husnu malohatda yagona bo'lar,
Qo'rku latofatli jonona bo'lar,
Aqlu zakovatda bir dona bo'lar,
O'ttizdan o'tsalar, qirqqa yetsalar.
Qoshiga o'smalar qo'yganda ko'ring,
Ko'ziga surmalar surganda ko'ring,
Ochilib kulganda, yurganda ko'ring,
O'ttizdan o'tsalar, qirqqa yetsalar.
Yuzlariga qarab to'yib bo'lmaydi,
Bebosh bu ko'zlarni tiyib bo'lmaydi,
O'zi suymaguncha, suyib bo'lmaydi,
O'ttizdan o'tsalar, qirqqa yetsalar.
Farzandiga mehri dunyocho bo'lar,
Sadoqatda Shirin, Laylocha bo'lar,
Xonadon yashnagay, nurlarga to'lar,
O'ttizdan o'tsalar, qirqqa yetsalar.

Otajon (Hazil Emas)

Yigirmada yigit yoshimda,
Dunyo ta'zim aylar qoshimda,
Sevgi degan savdo boshimda,
Menga oson tutmang, otajon.
Erkin Vohid she'rin yod olsam,
Qo'lda kitob xayolga tolsam,
Chaqirsangiz eshitmay qolsam,
Menga oson tutmang, otajon.
Dardim so'rang onajonimdan,
Yo janjalkash singiljonimdan.
Qo'shni qizni sevdim jonimdan,
Menga oson tutmang, otajon.
Maktublarim cho'zmaga joylab,
Hovlisiga otaman poylab.
Qo'shni xola chiqar "hoy-hoy"lab,
Menga oson tutmang, otajon.
Shayton: Qizdan qolasan, - deydi,
Olib qochsang, olasan", - deydi,
Buncha bo'shang bolasan, - deydi
Menga oson tutmang, otajon.

Ona Shahrim

Gulshanim desm arzir jonajon Marg'ilonim,
Yoshligim bahoridek navqiron Marg'ilonim.
Mehrimni qo'shiq aylab kuylamay nechun vasfing,
Maftuning yorug' olam begumon Marg'ilonim.
Mehnatni sevib xalqing beqiyos zamon ichra,
Baxt topdi - saodatga oshyon Marg'ilonim.
Yuksalib rivoj topding mustaqil diyorimda,
Jon kabi aziz noming - Marg'ilon Marg'ilonim,
Sen birla faxr aylar, bag'ringda Kariming ham,
Baxtli bir niholingdir, onajon Marg'ilonim.

Bo'lmasin

Ey, falak, hech kimga hech kim hech qachon zor bo'lmasin
Bemehr, do'st, bevafo yor, besamar kor bo'lmasin.
Chaqa kech bo'lgay, birodar, qil yomonlardan hazar,
Ganj debon sen asragan qo'yningdagi mor bo'lmasin.
Mansabu davlatga mag'rur bo'lma shayton kasbidir,
Ro'zi mahshar kech qolursan qancha iqror bo'lmasin.
Har kishi o'rnida bo'lsin, elga naf tegsin mudom,
Qahratonda savti bulbul, yozda hech qor bo'lmasin.
Oqil ersang har so'zingda qilmagil kibru havo,
Kun kelib nodonliging el ichra oshkor bo'lmasin.
Ey, Karim, ne bo'lsa bo'lsin asrasin Olloh faqat,
Boshing uzra norasolar ishda sarkor bo'lmasin.

Yaxshidur (Erkin Vohidov G'azaliga Nazira)

Yaxshidur achchiq haqiqat, lek shirin yolg'on yomon,
Bu shirin yolg'onga lekin aldanib qolg'on yomon,
Ranjima do'sting agar aybingni aytsa ro'yi rost,
Asli inson ortidan har so'zda chaynalg'on yomon.
Toledur qalbing aro do'st mehri jo bo'lsa faqat,
Zohiran oshno bo'lib, pinhon oyoq chalg'on yomon.
Boshing uzra qo'hi g'am tuhmatga teng kelmas sira,
Bol kabi turmushga ig'vo zahrini solg'on yomon.
So'yla rostin doimo boshga qilich kelganda ham,
Dard-la qiynalsang, davo bor: bedard qiynolg'on yomon.
Dema Erkin nazmi ichra senga ne kordir Karim,
Gar g'azal qadriga yetsang loqayd o'ltirg'on yomon.

Ko'rdim

Seng'a deb yozganim she'rim ko'ngilda bir fig'on ko'rdim,
Bu ohdan dildagi dardu ko'zimdin ashk ravon ko'rdim.
Bu ishq bedodidan ming dod chekarman foydasi bo'lmas,
Bujudim o'rtagan hijron chaqar, go'yo chayon ko'rdim.

Ne toledir qaro bo'lmish, yorishmas ming quyosh yoqsang,
Asirdirman bu zulmatda, qiyomat kun omon ko'rdim.
Omonlik istadim, ammo netay oppoq saharlarni,
Seningsiz nurli kunlarni qaro tunday yomon ko'rdim.
Izingga arzimas mendek g'arib, olma xayolingga,
Unutgil, buzmagil tinching senga oromijon ko'rdim.
Jahonda ne shirin so'z bor teng o'lmas bir kalomingga,
Menga so'z aytmagin, jonim, qilursan ko'p ziyon ko'rdim.
Qo'rolmay gul kabi chehrang Karim qon yig'lasa, ne qadr,
Oyog'ing ostida qolgan xazon umrim ayon ko'rdim.

Bo'lmasa Ne G'am

Daryo bo'lsang-u ummon bilmasa, ne g'am,
Dono bo'lsang-u nodon bilmasa, ne g'am.
Yomonlardan ehtiyot ayla o'zingni,
Yaxshiligingni yomon bilmasa, ne g'am.
Qanchalar chiranmagin haqiqat sinmas,
Rostgo'y bo'lsang-u yolg'on bilmasa, ne g'am.
Hayron bo'lma qopsalar quturib, hurib,
Odamligingni hayvon bilmasa, ne g'am.
Oftobga yetolmaysan bo'y cho'zgan bilan,
Yerdaligingni osmon bilmasa ne g'am.
Murod, manzilga omon yetmoq o'zi bas,
Sarbonligingni karvon bilmasa, ne g'am.
Har kimga dil siringni aytmoq ne hojat,
Majnunligingni jahon bilmasa, ne g'am.
Karim, yaxshi-yomonga maskandir zamin,
Umr o'tmoqda inson bilmasa, ne g'am.

Dard

She'rlaring dardli, deding - dardsiz yoza bilmas uni,
Yonmasa, yondirmasa, hofiz qo'shiq qilmas uni.
Chertmasa dil torlarin, essiz qalam, essiz qog'oz,
Lahzada bo'lgay unut umri tugal yilmas uni.
Bir buyuk shoir bo'lolmas dasta she'r yozgan bilan,
Tuymasa el qalbi dardin, she'r deb aytilmas uni.
Sevgi - dard, hijron - azob, otash bo'lib yondirsa ishq,
Tunni tonglarga ularsan, yozmasang bo'lmas uni.
Sen Karim dunyosidirsan, dardi armoni o'zing,
Bo'lmasang, bo'lmas g'azal ham, baxti ham kulmas uni.

Navbahor

Gul ochib chaman-chaman fasli navbahor bo'ldi,
Bog'lar yashil rang olib tog'lar lolazor bo'ldi.
Sharqirab soylar oqar, navosi dilga yoqar,
Novdalar marjon taqar, har yon maysazor bo'ldi.
Goh shivirlab, goh elab, dehqonga omad tilab
Yog'ar yomg'ir erkalab, tonglar beg'ubor bo'ldi.
Bulbul sayrar to'lg'onib, yonar gullar gulxani,
Ul gulsevar yor qani? Ko'zlar intizor bo'ldi.
Yayrashaylik kel, erkam, bugun bahoriy bayram,
Keldi navro'zi olam, quyosh zarnisor bo'ldi.
Diyorim asli go'zal, go'zallik fasli go'zal,
Yozay deb she'ru g'azal Karim beqaror bo'ldi.

Raqqosaga

Berib har davraga oro, kulib jonona o'ynaysiz,
Sochingizdan bo'yi rayhon tarab har yona o'ynaysiz.
Ajab qaddu ajab husnu nazokat bobida tanho,
Toshib, to'lqinlanib daryo misol mastona o'ynaysiz.
Gohi gir aylanib, gohi tovuqlarday hiron aylab,
Chaman yanglig' libos, ichra yonib to'lg'ona o'ynaysiz.
Hayo birlan imo aylab, ko'zingiz birla ko'z bog'lab,
Ishorat aylabon aytib, shirin afsona o'ynaysiz.
Ko'ringaysiz bo'lib afg'on, gohi ma'budai hindu,
Qarashlar gohida oshno, gohi begona o'ynaysiz.
Bahor bag'rida bir gulsiz, topib san'at-la baxtingiz,
Vatanga, elu yurtimga qilib shukrona o'ynaysiz.

Faqat siz o'ylamang yolg'iz Karim raqsimga shaydo deb,
Keling olqish bilan kutgay, butun Farg'ona, o'ynaysiz.

Agar

Baxt edi boshingga gullar chambarin taqсам agar,
Gul bahona ta'bi nozik ko'nglingga yoqsam agar.
Bir qiyo boqsang dilimda gul ochar fasli bahor,
Yuzlaring yonmog'i nedin men qiyo boqsam agar.
Lablaring la'li zilolin qadri zor etdi mani
Ne ajab shirin so'znigdan sel bo'lib oqsam agar.
Kulsalar, mayli malomat qilsalar holim ko'rib,
Girdibod monand izingdan har tomon chopsam agar.
Tosh olib quvsin mahallang, ostonangdan mani,
Bir gado yanglig' saharlar darvozang qoqsam agar.
Deydilar yopsangchi hasrat daftaringni ey, Karim
Dardlarim qayga yozarman, daftarim yopsam, agar.

Marg'ilon (Bahri Bayt)

Tovlanur yal-yal yonib tengsiz go'zallik mahzani,
Bu mening xonatlasimdir turfa ranglar gulshani.
Gulshanim, bog'im, bahorim ey, chaman yanglig' shahar,
Marg'ilon atlasga konim senga mehrim jon qadar.
Jon qadar sevdim jamoling atlasining aksidir,
Bog'laringga xo'p yarashgan qizlaring bo'y-bastidir.
Bo'yu bastiga munosib egnida atlas libos,
Raqs etar raqqosa qizlar buncha dilbar, buncha soz.
Buncha soz "Yabas", "Yaxudo", buncha soz "Bodikaram",
Goh "Shaxmat", goh "Tabassum", goh "Tovus" kiysa sanam.
Goh "Tovus" kiysa sanam dillarda kulgay navbahor,
Bu latofat, bu nazokat, bu nafasat qayda bor.
Qayda bor ayting alardek ishda ilg'or kamtarin,
Kimsanoy, Mayram, Nazira madhin aytay qay birin.
Qay birin fazlu kamolin, shuhratin aylay bayon,
Faxrimiz atlaschi qizlar: sizga olqish, sizga shon.
Sizga shon, shohi ipakka berdingiz sayqal - jilo,
Qo'llaringiz sehri san'at mulkin etdi istilo.
Istilo bo'ldi ko'ngillar ikki gulzor sehridan,
Biri atlas, biri zebo nozanin qiz mehridan.
Mehridanmi, sehridanmi bilmadim, shirin zabon,
Ta'bi nozik, o'zi nozik atlasi ko'rki jahon.
Atlasi ko'rki jahondir soldo har dilga surur,
Elu yurt orasta bo'lsa, bizga chin baxt shul erur.
Shul zruv orzu-tilaklar dilni etmish oshyon,
Mustaqillik jabhasida mardo maydon Marg'ilon.

Yor Istab

O'rtanur hijronda jonim, endi jon qo'ymas meni,
Haddidin oshdi azobi imtihon qo'ymas meni.
Ey, qanotimni qayirgan berahm zolim falak,
Loaqal yordin ayirma, bu omon qo'ymas meni.
Qaysi toshlarga uray men bu g'arib yolg'iz boshim,
Ket debon dargohidan nomehribon qo'ymas meni.
Ayb emas vayronalarda chug'zidek tutsam makon,
Ishq aro Majnun atab ahli zamon qo'ymas meni.
Telbadek yo'ldin adashdim, qayda karvonim ketur,
Berkitib darvozasin O'sh, Andijon qo'ymas meni.
Bosh olib ketsam Karim, Bobur kibi yor istabon,
Hazratim bog'cham deganlar Marg'ilon qo'ymas meni.

Ra'nolanur

Ra'nolanur ra'no desam, ra'no demang deb,
Zebolanur zebo desam, zebo demang deb.
Qizlar aro husnu latofatda yagona,
Tanholanur, tanho desam, tanho demang deb.
Shahlolariga termulib qolsam agarda,
Shahlolanur shahlo desam, shahlo demang deb.
Kelmay turib ketmoq uchun izlar bahona,
Aytilmagan gaplarim bir dunyo demang deb.

Kokillari qomatiga zebo yarashmish,
Orolanur barno desam, barno demang deb.
Shaydo desam Karim sevgi sadoqatingga,
Uyoladur ne bo'lsa ham shaydo demang deb.

Dil Izhori (Bahri Bayt)

Ne uchun mahzun bu ko'nglim, ne xayollarga asir,
Kel sanam, dardimni aytay o'zginangga birma-bir.
Birma-bir aytay, nigorim, tutma lutfingni darig',
Bu azim dunyoda yolg'iz mehribonimsan, axir.
Sen axir jonu jahonim, gavhari qimmatbaho,
Dilginamning senga bo'lgan mehri oshkor, dardi sir.
Sirlashib o'ltir qoshimda bir nafas shirin zabon,
Xohla dodimni eshitgil, hohla butkul sen gapir.
Sen gapir ohu ko'zingga termulib lol o'ltiray,
Lablaringdan dur sochilsin, mushki zulfingdan atir.
Atri zulfingdin Karim ko'ngli bahor o'lsa ne tong,
Bo'lg'usi obod nigohing tushsa sahroi Kabir.

Ishqida

Yor meni devona qildi ishqida,
El aro afsona qildi ishqida.
Vahki dodimni eshitmay ul sanam,
Mulzamu hayrona qildi ishqida.
Yonsamu kuysam, ado bo'lsam ne tong,
Sham kabi parvona qildi ishqida.
Yo'lida termultirib har subhi shom,
Ko'zlarim giryona qildi ishqida.
Saropo kezdim jahonni darbadar,
Manzilim ostona qildi ishqida.
Qismadi sabru qanoatdan xudo,
Sobitu mardona qildi ishqida.
Bir nazar tashlab Karim devonani,
Shoiri Farg'ona qildi ishqida.

Iltijo

Va'daga aylab vafo yor qoshima kelgan kezing,
Shom edi, kulbamni ravshan ayladi oydek yuzing.
Bu qadar kulgaymu baxtim yoki tush aldar ko'zim,
Sen nahot yonimdadirsan, sen nahot kelding o'zing.
Jilmayib holimni so'rding, ro'baro'mda o'ltirib,
Bunchalar malham ovozing, buncha ruhparvar so'zing.
Keldi shirin suhbatingdan ko'zu ko'nglimga huzur,
To qiyomat ko'zlarimdan uzmasang erdi ko'zing.
Iltijo qildim Karimdan: vaslidin etma yiroq,
Va'daga aylab vafo yor qoshima kelgan kezing.

Oromijon

Ko'ngil mulkida sen borsan ne baxtli oshyondir bu,
Xayoling, o'ylaring taskin berar, - oromijondir bu.
Saharlar kuyladim noming misoli bulbuli shaydo,
Sen, ey gul, etmading parvo so'rarga ne fig'ondir, bu.
Yonar rashkingda zor jismim, yonar jonim firoqingda,
Ne tongkim intizor qolgan yo'lingda notavondir bu.
Sevarman izlaring o'tgan go'zal bog'u chamanlarni,
Manga vasling nasib etgan azizim Marg'ilondir bu.
Shirindir ilk muhabbatning azobu dardlarin tortmoq
Karim ko'ngliga ne malham faqat senga ayondir bu.

Kel

Intizor erdi muhabbat gulshani jono biyo,
Zeb girad az tashrifi tu in chaman oro biyo.
Ravzai husning chirog'i baxsh etar dilga surur,
Ey shaxe mulki malohat, ko'zlari shahlo biyo.
Otashi hajringda yonmoq shud nasibi man qachon,
Orzue doram visoling meshavad oshno biyo.
Az nigohi dilso'zi tu aqlu xush begonadir,
Nav-banav noz ofarida orazi zebo biyo.

Gar bidoni az dilu jon do'st medoram turo,
Shu sabab senga Karimning mehri bir dunyo biyo.

Qarab Quysang

Ko'nglim ochilur jonon, birgina qarab qo'ysang,
Oshkor bo'lmasa pinhon birgina qarab qo'ysang.
Vaslingni tilab ko'zlar, hajringda yonib bo'zlar,
Qayda ham qolur hijron, birgina qarab qo'ysang.
Xayoling dilga rohat, yo'ling poylamoq odat,
Topib lahzalik imkon birgina qarab qo'ysang.
Qel, sanam, hayo birlan yo nozu ado birlan,
Bo'lur tengi yo'q ehson birgina qarab qo'ysang.
Ishqingda Karim hayron, ushalsin ezgu armon,
Joningga bo'lay qurbon, birgina qarab qo'ysang.

Mehri Ishqing

Gul kabi chehrangga boqqan tashna ko'zlar qonadir,
Lek ko'ngilda mehri ishqing misli oftob yonadir.
Sayri gul etmoqqa chiqsang senga parvona bo'lib,
Zor bulbul gulga bo'lgan sevgisidan tonadir.
Tortinib xonamga kirsang, yuksalar ko'nglim faqat,
Bo'lmasang yonimda dunyo kimsasiz bir xonadir.
Sen-la o'tgan lahzalarning qadri bor umrimga teng,
Har so'zing mehru muhabbat mulkida durdonadir.
Goh visol sarmastligidan baxtiyorman beaded,
Gohi hijron dardi o'rtab, jismi jon to'lg'onadir.
Jismi jon o'rtansa ham, baxtinga sen bo'lgil omon,
Sen bilan shaydo Karim qalbiga g'am begonadir.

Matlubalarga

Mahvashu matlub erursan, so'zlaring totlug' asal,
Ko'zlaring ishqdin risola, ikki qoshingdur g'azal.
Asrasin Olloh yomonlar ko'zidan, jonim seni
O'zi bergan ne'matimdir, sham'i husning bebadal.
Tim qaro zulfig aro oydin oydinroq yuzing,
Qomating sarvu sanubar, xulqu raftoring go'zal.
Laylo deb ismingni goho, gohi Shirin deb atab,
"Hamsa"ni bitmish Alisher besh yuz o'n besh yil avval.
Uzmagay ko'ngil visoling lazzatidan ahli ishq,
Deydilar: kimning nasibi bu malaksiymo azal.
Beqiyos husning asiri birgina bizlar emas,
Izlaring izlar hamisha oyu oftob galma-gal.
Arzimas she'rim qabul et, kel, Karim ko'ngli uchun,
Dur sohib la'li labingdan bir pas o'ltir loaqa.

Ona

Borlig'imning boisidir onaizorim, onam,
Topganim baxtim, najotim, davlatim - borim onam.
To hanuz jonim bolam, deb erkalab parvonadir,
Shoiram, shirin zabonim, to'ti guftorim - onam.
Oh, desam jonimga payvand aylagay o'z jonini,
Dardkashim xam dardlarimga malhamu dorim onam.
Goh tiriklik shevasidan kech qolib kelsam agar,
Termulib yo'limga bedor, zoru hushyorim onam.
Ming quyosh ham teng kelolmas onajonim mehriга,
Mehribonu munisim, tanti ziyokorim onam.
Ey, Karim, tashlab meni gar, ketsa hamki yoru do'st,
Bu jahon bozorida yolg'iz xaridorim onam.

Sensiz

Qay kuni so'zla, nigorim, bo'lgusi hijron tamom,
Qay kuni orzu ushalgay, qay kuni armon tamom.
Har mahal nozu adoning yangisin ko'rgay ko'zim,
Qay kuni bo'lgay bu nozu bu azobi jon tamom.
Ayriliqdin o'rtanur dil, tilga kelmas bir kalom
Qolmadi sabr aylamoqqa zarracha imkon tamom.
Ikki sohilda turarmiz, o'rtada ummon firoq,
Unda sen hayron turarsan, bunda men giryon tamom.

Ne turar sensiz Karimga bu jahonning qimmatini,
Men uchun qolmas zaminu men uchun osmon tamom.

Savol Berding

Eslaysizmu deb berding savol, nahot, seni unutib bo'lsa,
Jonim, savol keldi-ku malol, nahot seni unutib bo'lsa:
Yulduzlarni unutsam ne tong, gul yuzlarni unutsam, ne tong,
Ko'zlari sho'x, qoshlari hilol, nahot seni unutib bo'lsa.
Hajring aro zor bo'lgan o'zim, gohi tirik; goh o'lgan o'zim,
Darding olay ey, sohibjamol, nahot seni unutib bo'lsa.
Unut: bo'lsin osuda tunlar, o'sha shirin orzuli kunlar,
Mayli bari bo'lsa-da uvol nahot seni unutib bo'lsa.
Yonib-yonib o'tgan oshiqalar va ma'shuqdar nomiga qasam,
Seni sevdim, sevgim bezavol, nahot seni unutib bo'lsa.
Oylar o'tar, yillar begumon senga Karim mehri bir jahon,
O'zing so'zla, o'zing oyjamol, nahot seni unutib bo'lsa.

Salom Aylab

Salom aylab kirib kelding bu ne shirin nafas bo'ldi
Qo'ngildan xohishu g'amlar... abas bo'ldi, abas bo'ldi.
Raqib holi yomon bo'ldi, baxil bag'riga qon to'ldi,
Jahon ko'ngli qarolarga qafas bo'ldi, qafas bo'ldi.
Tushib qish taxtidan bir on bahorni ayladi sulton,
Taraldi mushk ila rayhon havas bo'ldi, havas bo'ldi.
Chaman qumrilar biyron, navoga to'ldi keng osmon,
Visoldin yashnadi har yon, sog'inchga basma bas bo'ldi.
Karim, ko'ksini tog' etding, bu tog' bag'rini bog' etding,
Vafo mehru muhabbatga asos bo'ldi, asos bo'ldi.

Tabassum

Tabassum aylading zimdan, ko'ngilni beqaror etding,
Uzatding qo'lga ishq sozin, ko'yingda bastakor etding.
Rubobim torlarin chertib senga ishqim bayon etsam,
Savolimga javob bermay, ajab, maftuni zor etding.
Umidu orzuga to'lgan bu qalbim senga zor erdi,
Nigohing birla qalbimni yana fasli bahor etding.
Olib gohida tinchimni sog'intirding necha kunlar,
Yo'lingda ikki ko'zimni o'zimdek intizor etding.

Sog'inch

Kelmading, quyosh ham botib ketdi-ku,
Oqardi kecha, tong otib ketdi-ku.
Umid yulduzlarim so'ndilar bir-bir,
Armon orzularni yutib ketdi-ku.
Sog'inchdan ko'zlarim yoshlarga to'ldi,
Oy ko'kni bulutga sotib ketdi-ku.
Nahot senga yetmas, qaydasan, jonim,
Ohim Farg'onani tutib ketdi-ku.
Sen yo'qsan g'amimdan birovga ne g'am,
Dardlarim yozg'uchi kotib ketdi-ku.
Tinmasa fig'onim, Karim, ne iloj,
Hijron jon-jonimdan o'tib ketdi-ku.

Sevgi Niholi

Dilbar parishon o'ylanar ko'ring bu xolini,
Qay baxtiyor band aylamish fikru xayolini.
Tong yellari kokillarin mushki bilan mast,
Sho'xlik qilar gul bargidek tortar ro'molini.
Aqlu zakovat aks etar ko'zlar qarosida,
Maftuni bo'ldim bir ko'rib husnu jamolini.
Bordim yaqinroq intizor ko'z ko'zni ko'zladi,
Dil bo'zladi, til muzladi aytmay savolini.
Tushgach nigohi men tomon qo'zg'aldi o'rnidan,
Ko'zlar tomosho aylabon to'yimas kamolini.
Ketdi Karimni ul pari tashlab firoqiga,
Qalb gulshaniga o'tqazib sevgi niholini.

Sog'inganimdan

Lahzalar yil bo'ldi sog'inganimdan,
Ne bo'lsa dil bo'ldi sog'inganimdan.
Ul sanam firog'i qaddimni bukdi,
G'am yuki zil bo'ldi sog'inganimdan.
Boshimga yog'ildi ming turfa mehnat,
Jafolar xil bo'ldi sog'inganimdan.
So'zlarim anglamas na do'st, na raqib,
Bu nechuk til bo'ldi sog'inganimdan.
Hijron rashk toshini mo'ljalga otdi,
Yurak chil-chil bo'ldi sog'inganimdan.
Na tongdan darak bor, na yordan xabar,
Ko'z yoshim sel bo'ldi sog'inganimdan.
Na telba erurman, na sog', ey Karim,
Bir ajab fe'l bo'ldi sog'inganimdan.

Ne Ajab

Ne ajab sevdim chamanning bir guli ra'nosini,
Bo'zlatib qo'ymish meningdek bulbuli shaydosini.
Ko'rmasam bir kun ko'rinmas ko'zga olam ziynati,
Yod etib tasknn toparman ko'zlari shahlosini.
Rashk ila hijron azob berganda ham e'zoz etar,
Oshiq o'z mahbubini, ko'ngil aro tanhosini.
Baxt erur sevmoq sevilmoq, o'zga baxt bo'lmas sira
Sevgidan topsa kishi o'z umrining ma'nosini.
Tutmangiz oson Karimga, dard ila yozsa g'azal,
Boshidan o'tgan bilur ilk sevgining savdosini.

Onajon Sizga

Onajon sizga bu oqshom tutganim guldastadir,
Gullaringa mehru ishqim jon kabi vobastadir.
Siz mening jonu jahonim, mehribonim, munisim,
Har so'zingiz dilga malham, shoimu shoistadir.
Aytsangiz mehru muhabbat birla shirin allalar,
Lol qolur gulshanda bulbul, hush yo'qotgan xastadir.
Siz bilan obod bu dunyosiz bilan boldek hayot,
Siz bilan nurli, charog'on xonadon orastadir.
Ta'rifingiz kuylamoqqa ming qo'shiq ozlik qilur,
Shu sababdin kuy-qo'shiqlar sizga dasta-dastadir.

Umid Aylab

Menga olam charog'ondir sening ruxsoru olingdan,
Misol andoza olgandek oyu oftob jamolingdan.
Qayu Layli, qayu Shirin senga teng o'lmag'ay hargiz,
Berilmas hech kima nisbat, ochilsa so'z visolingdan.
Sen o'zbek dilbaridursan, hayo, andishaparvarsan,
Jahon mahbublari ibrat olur fazlu kamolingdan.
Ne qilsang, ixtiyor senda asiru muhtalodurman,
Jazo ikki ko'zingdandir, imo ikki hilolingdan.
Nechun g'ash bo'lmasin ko'nglim o'shal besharm sabolardan,
Muattar sochlaring o'psa, quchib qaddu niholingdan.
Hamisha gul kabi chehrang Karim ko'z ustida, jonim,
Firoqingda ko'ngil uzmas umid aylab visolingdan.

Zor Edim

Zor edim bir ko'rgali, sohibjamolim qaydadur,
Qomati navrastai, nozik niholim qaydadur.
Ko'z uchida bir qarab, holimni so'rsa na bo'lur,
Ul muhabbat shohi-yu, bu xom xayolim qaydadur.
Oy desam tunda ko'runmas, kun desam kunduz yana
Indamas sayyoralar shamsu hilolim qaydadur.
Berkitur ko'zdin nari yorimni gulshan gullari,
So'yla, ey bulbul, manim layli maqolim qaydadur.
Qays kibi sahro kezib, qilsam jununlik kasbi kor,
Chashmai obi hayot, la'li zilolim qaydadur.
Kelsa ham fasli xazon, sarg'arsa yuzlar g'am dema,
Izlaring izlar Karim, takror savolim qaydadur.

Bir Savol

This is not registered version of TotalDocConverter

Bu hejar o'zga nig'olim, bilmadim deysiz kulib,
So'zlasam ahvoli zorim, bilmadim deysiz kulib.
Aqlu xush ketdi o'zimdan siz kabi tark ayladi,
Yo, sinaysizmi qarorim bilmadim, deysiz kulib.
Bir qiyo boqmay o'tarsiz, e'tibor bermay sira,
Bari birmi yo'g'u borim, bilmadim, deysiz kulib.
Maylimu rashk otashida o'rtanib yonsa yurak,
Qayda qoldi ixtiyorim, bilmadim, deysiz kulib.
Bir safar aylang javob, oshiq Karimdan bir savol
Qay kuni kulgay nahorim, bilmadim, deysiz kulib.

Bedard Kimsalar

Dardim ortar ko'rganimda ba'zi bedard kimsalar,
O'zi ishqdin bexabar-ku, sevgidin lof ursalar.
Dardim ortar, mansabu obro'si borlar xush kelib,
Bag'ri toshlik birla oshiq holatimdin kulsalar.
Dardim ortar, tosh emasman sabru bardosh etgali,
O'zgalarning iltifotin kunda aytib tursalar.
Mayli, yer qilsin tomosha, bepisandlar har kuni,
Rashk tig'i birlan dilimni ming bo'lakka bo'lsalar.
Balki aybim sevganimdir, balki rashkimdir xato,
Dardim ortar, ul sanam bir so'z demay o'ltirsalar.
Bir shirin bo'sa gunohin, ey, Karim, yuvmoq uchun,

Roziman bir bor emas, bir kunda ming o'ldursalar.